



TABIIY MONOPOL KORXONALARNI BOSHQARISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY JIHATLARI

Umarova Irodaxon Nuraliyevna

Alfraganus universiteti NOTT, Menejment va marketing
kafedrası katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14615221>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-Yanvar 2025 yil

Ma'qullandi: 06-Yanvar 2025 yil

Nashr qilindi: 08-Yanvar 2025 yil

KEYWORDS

*monopoliya, huquq, iqtisodiyot,
tadbirkorlik, boshqarish, tizim,
raqobat.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada tabiiy monopol korxonalarni boshqarishning iqtisodiy va huquqiy jihatlari, iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar hamda tabiiy monopoliyani tizimini takomillashtirish haqida ma'lumotlar berilgan.

O'zbekistonda raqobat siyosatini olib borishning yaratilgan tizimi qonunlar va qonun osti hujjatlarini, uni amalga oshirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga javob beradigan maxsus muassasalar hamda mazkur siyosatni amalga oshirish mexanizmini o'z ichiga oladi. Biroq sohadagi muayyan muvaffaqiyatlarga qaramay, raqobat siyosatini olib borishning maqsad va usullarini yanada takomillashtirish talab etilmoqda. Bu, eng avvalo, globalizatsiya ko'lamlari va ta'sir kuchlarining o'sishi bilan belgilanadi hamda mos ravishda, milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish uchun sharoit yaratish talab etiladi [1].

Mamlakatda tabiiy monopol korxonalarni boshqarish va tartibga solish borasida raqobat siyosatining samaradorligini uch asosiy yo'nalishda o'rganiladi: qonunchilik va antimonopol tartibga solish amaliyoti; iqtisodiy konsentratsiya va uni tartibga solish muammolari; raqobat muhitini rivojlantirish mexanizmlari.

Bozor iqtisodiyotining tarixi - bu ko'p darajada monopoliyaning salbiy hodisalariga qarshi kurash tarixidir. Nazariya va amaliyotning ko'rsatishicha, monopol holatlar quyidagilarni vujudga keltiradi: yuqori narxlarni, ular monopol korxonalar mahsuloti uchun belgilanib, iste'molchilar to'lashiga to'g'ri keladi; yuqori narxlarlarni ushlab turish uchun tovar va xizmatlarning alohida turlarini ishlab chiqarishga sun'iy cheklovlarini, bu esa resurslarning turli tarmoqlar o'rtasida samarasiz taqsimlanishiga, monopoliyalashtirilgan tarmoqlarda ulardan yetarli foydalanilmasligiga olib keladi; ishlab chiqarishning texnik turg'unligi, mahsulotning past sifatini.

Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda boshqa ko'plab muammolar monopoliyani vujudga keltiradi. Bu O'zbekistonga ham tegishli bo'lib, bu yerda tarixiy sabablar tufayli ko'p darajada tarmoq vazirliklari maqomi va vazifalariga ega bo'lgan kvazidavlat tuzilmalari (uyushmalar, konsernlar, korporatsiyalar, kompaniyalar) shaklida saqlanib qolgan.

Shu sababli O'zbekistonda samarali raqobat muhitini yaratish uchun quyidagi tadbirlar talab etiladi "[2]:

-iqtisodiyotda davlat monopoliyasining barcha holat va turlarini maksimal darajada bartaraf etish, buning uchun tadbirkorlikni rivojlantirishga va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan chuqur institutsional islohot zarur;

-bozorda yetakchi mavqega ega bo'lgan monopol korxonalar tomonidan yomonliklar (kamsitishlar, yakka holda bozorni egallash)ni tugatish.

Davlat muassasalari raqobatni rivojlantirishni ta'minlashi kerak, busiz samarali innovatsiyalar, past xarajatlar va narxlar, mahsulotning yuqori sifatiga erishish mumkin emas – boshqacha aytganda, butun iqtisodiyot raqobatbardoshligini o'stirib bo'lmaydi.

Dastlab tabiiy monopoliya tushunchasini iqtisodiy kategoriya sifatida e'tibor qaratib, fanga olib kirgan klassik maktabi vakillari Dj.S. Mil, A.Marshal, V.Petti, E.Chemberlin, va J.Robinsonlar hisoblanadi.

Monopoliyalar paydo bo'lishining sabablarini monopoliyalarning paydo bo'lishining ba'zi "Tabiiy" sabablari borligi bilan izohlagan A.Marshal raqobatning texnologik konsepsiyasini boshlab berdi, ulardan asosiysi tarmoq tejamkorligi hisoblanadi. Monopolistik raqobat muammosini o'rganib chiqqan E.Chemberlin va J.Robinson monopoliyalarni nafaqat raqobatda ustunligini, balki iqtisodiy tizimning muqarrar elementi deb hisoblaydilar. E.Chemberlin "Monopoliyaning haddan tashqari chegarasi - bu barcha iqtisodiy foydalarni etkazib berishni boshqarishdir", deb ta'kidlaydi. J.M.Klark qo'shimcha xarajatlar tarkibi va mohiyatini tahlil qilib, tabiiy monopoliya tushunchasiga katta hissa qo'shdi. U qo'shimcha xarajatlarning ulushi katta bo'lgan ayrim sohalarda raqobat mukammal emasligini ta'kidladi. K.Makkonnell va S.Bryu, shuningdek, tabiiy monopoliyalar miqyosi tejamkorligi mumkin bo'lgan sohalarda vujudga keladi, ammo shu bilan birga raqobat vaqtining mumkin emasligiga ishora qiladi, raqobat mumkin emas, qiyin emas yoki shunchaki qo'llanilmaydi. Bunday tarmoqlar tabiiy monopoliyalar deb ataladi "[4].

Siyosiy va huquqiy nazariya vakillari (Di T. Lorenzo, G. Grey, R. Erli) tabiiy monopoliyaning noklassik ta'rifini qabul qilib, muhokama mavzusi uning kelib chiqishining asosiy sabablari sifatida bozor va texnologik omillarni aniqlashning asosiligi ekanligini ta'kidladilar. Ularning konsepsiyasi tabiiy monopoliyalarga nisbatan belgilovchi omil sifatida davlatning rolining oshishi taxminidan kelib chiqadi [4, 5].

Tabiiy monopoliyalar sub'ektlari faoliyatini tartibga solish narxlarni yoki uning chegara qiymatini belgilash, shuningdek majburiy xizmat ko'rsatadigan iste'molchilarni aniqlash orqali narxlarni tartibga solish usuli bilan amalga oshiriladi. Nazariy nuqtai nazardan, eng maqbul narx marjinal xarajatlar asosida narxni aniqlashdir. Shu bilan birga, tabiiy monopoliyalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, xarajatlarning o'rtacha qiymatlari marjinalga qaraganda yuqori bo'lib, natijada ularning foydasiz bo'lishiga olib keladi [4].

Mamlakatimizda mustaqillikka erishgan yillardan boshlab tabiiy monopol korxonalar faoliyatini tartibga solish bo'yicha bir qancha qonun va qonun osti hujjatlar qabul qilindi. Iqtisodiyotni rivojlanishi natijasida dastlabki qabul qilingan ayrim qonunlar o'z kuchini yo'qotdi, sababi uning o'rniga bugungi kun uchun zarur bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga ehtiyoj paydo bo'ldi.

O'zbekiston bozor islohotlarining birinchi bosqichidan boshlab, tabiiy monopol korxonalar faoliyatini tartibga solish siyosatini iqtisodiy – huquqiy qonunchilikda aks ettirdi va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida mazkur siyosat o'zining yanada rivojlanishiga ega bo'ldi [3].

Tabiiy monopol korxonalar tomonidan iste'molchilarga ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarni tartibga solish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni mavjud [2, 5]. Mazkur qonun orqali, iste'molchilar o'z huquqlarining buzilishi bilan bog'liq da'volar bo'yicha, shuningdek, tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishi ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari, iste'molchilarning jamoat birlashmalari iste'molchining (iste'molchilar nomuayyan doirasining) manfaatlarini himoya qilish imkoniyati yaratildi.

Respublikamizda tabiiy monopoliyalarni tartibga solish borasida oxirgi yillarda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat aktivlari boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 14 yanvardagi N PF-5630 - sonli Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi kurashish Qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4126-sonli Qarorlarining qabul qilinishi tabiiy monopol korxonalarni boshqarish va tartibga solishning yangicha zamonaviy ko'rinishdagi iqtisodiy - huquqiy jihatlarini belgilab berdi.

Iqtisodiyotdagi yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarni hisobga olib, tabiiy monopol korxonalarni tartibga solish organlari muassasalarini mustahkamlash, mazkur davrdagi antimonopol qonunchilikni takomillashtirish maqsadida yuqorida keltirilgan Qonun va qarorlardan tashqari quyidagi muhim qonun hujjatlari ishlab chiqildi va qabul qilindi:

- O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi 1998 yil 25 dekabrda N 723-I sonli Qonuni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020 yil 6 iyuldagi PF-6016 – sonli Farmoni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoqilg'i-energetika resurslari hamda boshqa yuqori likvidli mahsulotlar bilan ta'minlash borasida raqobat muhitini takomillashtirish, suiiste'molchiliklar va talon-torajliklar sharoitini tugatish, to'lov intizomini mustahkamlash, debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 14 noyabrgi PQ-3386 – sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solish sohasidagi davlat xizmatlarini ko'rsatishning ayrim ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 2020 yil 28 maydagi № 338 -sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2013 yil 20 avgustdagi № 230 -sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ish qo'zg'atish va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2005 yil 12 oktabrdagi № 225 -sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni deklaratsiya qilish (tasdiqlash) va belgilash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2010 yil 28 oktabrdagi №239-sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Monopoliyaga qarshi kurashni tartibga solish sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 2013 yil 27 dekabrda gi №344-sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tovar bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 30 martdagi №249 – sonli Qarori.

Mazkur qonunlar va qarorlarni ishlab chiqishda nafaqat milliy, balki xorijiy, shu jumladan, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar tajribalaridan foydalanilgan.

Ushbu qonunlar qabul qilinmasdan oldin tabiiy monopoliyalar sohaslarida raqobatni himoyalashga oid birorta ham me'yoriy-huquqiy hujjat mavjud emasdi. Bundan tashqari, respublikada huquqning ushbu sohasida nazariy va amaliy asoslar yetarli darajada ishlab chiqilmagan edi.

Tabiiy monopoliyalarning quyidagi sohalarda davlat tomonidan tartibga solinadi: neft, neft mahsulotlari va gazni quvur orqali transportirovka qilish; elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish hamda transportirovka qilish; temir yo'llar infratuzilmasidan foydalanish hisobga olingan holda temir yo'llarda tashish; umumiy erkin foydalaniladigan pochta aloqasi xizmatlari; suv quvurlari va kanalizatsiya xizmati; aeronavigatsiyalar, portlar va aeroportlar xizmatlari.

Davlat tomonidan tartibga solinishining bevosita va bilvosita sabablari mavjud. Chunki, bu sohaslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarga aholini ya'ni, iste'molchilarning ijtimoiy qatlamini hisobga olib davlat tomonidan narxlarni tartibga solish va belgilash siyosati yuritiladi. Shu bilan birga mazkur sohaslar davlat uchun strategik ahamiyati yuqori bo'lgan tarmoqlari hisoblanadi.

2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasida ta'kidlaganlaridek, "Davlat aktivlari tartibsiz boshqarilayotgani ham samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, hozirgi vaqtda 972 ta davlat korxonasi aktivlarining atigi 21 foizi Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan, qolgan 79 foizi vazirlik va idoralar hamda xo'jalik birlashmalari tomonidan boshqarilmoqda" deb ta'kidlab o'tgandilar [5].

O'zbekistonning xorij qonunchiligidan asosiy farqi shundaki, bunda bozor ulushi majburiy antimonopol tadbirlar to'g'risida qaror qabul qilishda oxirgi va hal qiluvchi omil hisoblanmaydi. Xorijda esa u faqat yetakchi ahvol to'g'risida taxmin qilish uchun asos bo'ladi.

Tabiiy monopoliyalar tushunchasi, MDH mamlakatlarida (shu jumladan, O'zbekistonda) ko'proq huquqiy maqomga ega bo'lib, AQSh va Yevropa qonunchiligida «Tabiiy monopoliya» tushunchasi uchramaydi. Bizning respublikamizda tabiiy monopoliyalarni tartibga solish modelining birinchi xususiyati tabiiy monopoliyalar sub'ektlari faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy qonunning mavjudligi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining antimonopol qonunchiligi dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi kabi quyidagi vositalar yordamida raqobatni tartibga soladi: yetakchi

ahvoldan yomonlik yo'lida foydalanilishiga ta'sir ko'rsatish; -raqobatni cheklashga qaratilgan kelishilgan harakatlarga yo'l qo'ymaslik va nazorat qilish; iqtisodiy konsentratsiyani tartibga solish.

Dunyo iqtisodiyoti jiddat bilan rivojlanib bormoqda, bugun har qanday davlat dunyo iqtisodiyoti bilan birga rivojlanmasa yoki o'zining iqtisodiy mazmundagi Qonunlarini qayta ko'rib chiqib takomillashtirib bormasa, iqtisodiy jihatdan orqada qolishi yoki xalqaro iqtisodiy munosabatlar olib borishda katta muammolar va to'siqlarga duch kelishi mumkin.

Qonun hujjatlarini raqobatga ta'siri nimalarda ko'rinadi:

- faoliyatning biror bir sohasida yangi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tashkil etishga cheklovlar joriy etilishi;

- shartnomalar tuzishda ustunlik berish, sotib oluvchilarning muayyan doirasiga tovarlarni birinchi navbatda realizatsiya qilish, moliyaviy mablag'larning manbalarini tanlash va ulardan foydalanish yo'nalishlarining afzalligi to'g'risida xo'jalik yurituvchi sub'ektga ko'rsatmalar berilishi;

- ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ularni tovar yoki moliya bozorida faoliyat ko'rsatayotgan boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan afzal holatga qo'yadigan imtiyozlar, preferensiyalar va yengilliklarni asossiz ravishda berilishi;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olinishi;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy faoliyatiga oqibatda raqobat cheklanishi mumkin bo'lgan tarzda aralashishi;

- o'z vazifalarini xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning vazifalari bilan qo'shib bajarishi;

-ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyati uchun boshqa kamsituvchi yoki imtiyozli shartlar (sharoitlar) belgilashi taqiqlanadi.

Tabiiy monopoliyalarni tartibga solish va boshqarish bo'yicha amaldagi me'yoriy – xuquqiy xujjatlarni iqtisodiy - huquqiy jihatlarini tahlil qilish orqali, qonunchilikdagi mavjud muammo va kamchiliklarni ko'rsatib o'tish hamda ularni bartaraf etish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish. Umumlashgan holda ularni quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

-qonun me'yorlari va ular o'rtasidagi ziddiyatlarga turlicha turtki berishni istisno etish, uning amaliy yo'naltirilganligi va uyg'unlashuvini o'stirish maqsadida tabiiy monopoliyalar qonunchiligini qayta ko'rib chiqish hamda respublika qonunchiligining boshqa bo'limlari bilan kelishuvchanligiga erishish;

-qonunchilikka xaridorlarning yetakchilik holatini hamda ulardan yomon maqsadlarda foydalanish uchun mas'uliyatli tadbirlarni aniqlashni kiritish;

-raqobat siyosati asosiy tamoyilini o'zgartirish – monopol korxonalar faoliyatini qattiq tartibga solishdan ularning antiraqobat fe'l-atvori uchun jazolashga o'tish. Bundan korxonaning bozordagi yetakchi ahvoli qonunchilikning buzilishi hisoblanmasligi kelib chiqadi. Ba'zida esa korxonaning samarali ishlashidan guvohlik beradi va uning tashqi bozordagi raqobatbardoshligining muhim shart-sharoiti hisoblanadi. Yetakchilik mavqeidan yomonlikda foydalanganligi, tekshirish va sud ajrimlari jarayonida isbotlangan bo'lsa, qoidabuzarlik hisoblanishi kerak hamda moliya bozorlariga antimonopol qonunchilik ta'siri sohasini kengaytirib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.11.2023 yildagi PF-193-son. 2023 yil 10 noyabr.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон Халқига Мурожаатномаси. "Халқ сўзи" газетаси, 2022 йил 21 декабр, № 272 (8334).
3. J.T. Askarov. Biznes huquqi. O'quv qo'llanma. -T.: TDYU. 2024. – 216b.
4. Obidov Mashhad Ismoiljon o'g'li. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining moliaviy resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish. "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995. Volume-14, Issue-2, July – 2022.
5. Ganixodjaeva N.A. Концептуальные основы исследования сущности и содержания института «Естественная монополия»./"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnal №4. Iyul-avgust, 2017 y.

